



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**2020- yil yanvar - dekabr** *(dastlabki ma'lumotlar)*

### **Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so'mda)*

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Navoiy viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 5 261,8 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 150,3 %), Zarafshon shahrida 5 039,6 ming so'mni (144,0 %), Navoiy shahrida 3 717,7 ming so'mni (106,2 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Qiziltepa tumanida 1 662,3 ming so'mni (47,5 %), Xatirchi tumanida 1 730,6 ming so'mni (49,4 %), Nurota tumanida 1 740,7 ming so'mni (49,7 %), Navbahor tumanida 1 842,6 ming so'mni (52,6 %), Gazg'on shahrida 1 883,3 ming so'mni (53,8 %), Konimex tumanida 1 913,5 ming so'mni (54,7 %), Tomdi tumanida 2 119,6 ming so'mni (60,5 %), Karmana tumanida 2 685,2 ming so'mni (76,7 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'imqoda.


**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(2020- yil yanvar-dekabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da qishloq  
xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari)*



Viloyat bo'yicha 2020- yil yanvar - dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ulushi jamiga nisbatan: bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (163,8 %), sanoatda (140,2 %), qurilishda (116,2 %), savdoda (75,9 %), axborotlashtirish va aloqada (72,5 %), ta'lim sohasida (55,4 %), tashish va saqlashda (64,5 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda (48,0 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (51,6 %) va boshqa yo'nalishlarda (74,5 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.



### **Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2020- yil yanvar-dekabr, viloyatdagagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**



**Yuridik shaxslarda xodimlar soni, ish haqi fondi va o'rtacha oylik ish haqi  
2020- yil yanvar-dekabr  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**

	Xodimlar soni kishida	Ish haqi fondi, mln. so'mda	O'rtacha oylik ish haqi ming so'mda
<b>Navoiy viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>159 807</b>	<b>6 713 327,2</b>	<b>3 500,7</b>
shu jumladan			
Sanoat	73 779	4 344 421,4	4 907,0
Qurilish	4 583	223 673,9	4 067,1
Savdo	1 420	45 261,8	2 656,2
Tashish va saqlash	1 821	49 337,3	2 257,8
Axborot va aloqa	670	20 412,0	2 538,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	2 090	143 829,6	5 734,8
Ta'lim	40 569	943 836,0	1938,7
Sog'lijni saqlash va jtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17 218	373 109,9	1 805,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 022	20 605,8	1 680,2
Boshqa faoliyat turlari	16 632	520 801,0	2 609,4

**Navoiy viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili  
2020- yil yanvar - dekabr**  
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari)*

**Sanoat sohasida** 33 ta korxonada 73 779 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 4 344 421,4 mln. so'mni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rтacha oylik nominal ish haqi 4 907,0 ming so'mni tashkil etdi.



**Ta'lim sohasida** 645 ta muassasada 40 569 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 943 836,0 mln. so'mni tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rтacha oylik nominal ish haqi 1 938,7 ming so'mni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida** 44 ta muassasada 17 218 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,8 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 373 109,9 mln. so'mni tashkil etgan. Hisoblangan o'rтacha oylik nominal ish haqi 1 805,8 ming so'mni tashkil etdi.



**Savdo sohasida** 13 ta korxonada 1 420 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 45 261,8 mln. so'mni tashkil etgan. Savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 656,2 ming so'mni tashkil etdi.



**Axborot va aloqa sohasida** 8 ta korxonada 670 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 20 412,0 mln. so'mni tashkil etgan. Axborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 538,8 ming so'mni tashkil etdi.

**Qurilish sohasida** 11 ta korxonada 4 583 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 223 673,9 mln. so'mni tashkil etgan. Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 067,1 ming so'mni tashkil etdi.



**Tashish va saqlashda** 13 ta korxonada 1 821 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 49 337,3 mln. so'mni tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 257,8 ming so'mni tashkil etdi.



**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** faoliyatida 45 ta muassasada 2 090 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 143 829,6 mln. so'mni tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 5 734,8 ming so'mni tashkil etdi.

**Boshqa faoliyat turlarida** 312 ta korxonada 16 632 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 520 801,0 mln. so'mni tashkil etgan. Boshqa faoliyat turlarida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 609,4 ming so'mni tashkil etdi.



**Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)**

	<i>oktabr</i>	<i>noyabr</i>	<i>dekabr</i>	<i>yanvar-dekabr</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 759,2</b>	<b>3 788,1</b>	<b>4 064,0</b>	<b>3 500,7</b>
Navoiy sh.	3 995,9	4 011,4	4 394,3	3 717,7
Zarafshon sh.	5 585,7	5 626,0	5 777,0	5 039,6
Gazg'on sh.		1 707,9	1 938,2	1 883,3
Karmana t.	2 620,9	2 631,9	3 406,9	2 685,2
Konimex t.	1 870,9	1 912,7	2 159,3	1 913,5
Qiziltepa t.	1 795,4	1 825,0	1 946,5	1 662,3
Navbahor t.	1 893,0	2 006,4	2 212,8	1 842,6
Nurota t.	1 709,1	1 687,4	1 861,5	1 740,7
Tomdi t.	2 124,3	2 210,5	2 479,1	2 119,6
Uchquduq t.	5 898,2	5 967,3	5 824,1	5 261,8
Xatirchi t.	1 673,9	1 741,3	1 820,1	1 730,6

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020- yil mart oyida 679,3 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,**

